



BOLALAR TILI VA UNING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Yusupova Gulnoza Ma'rufjon qizi

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti

4-bosqich talabasi

Annotasiya: *Mazkur maqolada bolalar tilining shakllanish jarayoni va uning sotsiolingvistik xususiyatlari tahlil etiladi. Tadqiqotda bolalar nutqining rivojlanish bosqichlari, nutqqa ta'sir etuvchi tabiiy va ijtimoiy omillar, oilaviy hamda madaniy muhitning bola nutqiga ko'rsatadigan ta'siri yoritilgan. Shuningdek, ikki tilli muhitda ulg'aygan bolalar nutqida kuzatiladigan lisoniy holatlar hamda kattalar nutqining bola tiliga ta'siri sotsiolingvistik nuqtayi nazardan baholanadi. Maqolada bolalar nutqining jamiyat bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilib, uni to'g'ri shakllantirishning muhimligi ilmiy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *Bolalar tili, sotsiolingvistika, nutq rivoji, ijtimoiy muhit, til va jamiyat, ikki tillilik, bola nutqi, nutq tarbiyasi.*

Abstract: *This article analyzes the formation process of children's language and its sociolinguistic features. In the study, the stages of development of children's speech, natural and social factors affecting speech, and the influence of family and cultural environment on children's speech are highlighted. Also, linguistic situations observed in the speech of children growing up in a bilingual environment and the influence of adult speech on the child's language are evaluated from a sociolinguistic point of view. The article substantiates the integral connection of children's speech with society, and the importance of its correct formation is scientifically based.*

Keywords: *Children's language, sociolinguistics, speech development, social environment, language and society, bilingualism, children's speech, speech education.*

Аннотация: *В данной статье анализируется процесс формирования детской речи и ее социолингвистические особенности. В исследовании выделены этапы развития детской речи, природные и социальные факторы, влияющие на речь, а также влияние семейной и культурной среды на детскую речь. Также с социолингвистической точки зрения оцениваются языковые ситуации, наблюдаемые в речи детей, растущих в билингвальной среде, и влияние речи взрослого на язык ребенка. В статье обоснована целостная связь детской речи с обществом, научно обоснована важность ее правильного формирования.*

Ключевые слова: *Детский язык, социолингвистика, речевое развитие, социальная среда, язык и общество, билингвизм, речь детей, речевое воспитание.*

Sotsiolingvistika – tilning jamiyat hayotidagi roli, uning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy vazifasi, va u bilan bog'liq omillarning tilga bo'lgan ta'sir mexanizmi bilan aloqador masalalarni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi. Unda davriy o'zgarishlar, gender variativliklar, lisoniy kod,



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



lisoniy hamjamiyat, diglossiya, blingvizm, til siyosati va boshqa masalalar o‘rganiladi, tahlil etiladi. Ushbu soha tilshunoslikda yangi bo‘lganligi sabab, ko‘p tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Xususan, bolalar nutqi ham alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan mavzulardan biri sanaladi. Biz kattalar nutqi, gender farqlar haqida uzoq to‘xtalishimiz mumkin bo‘lganidek, bolalar tilda ham o‘ziga xos xususiyatlar mavjud.

Bolalar tili masalasi tilshunoslik, psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarining kesishgan nuqtasida shakllanadigan dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biridir. Til insonning asosiy ijtimoiy hodisasi sifatida uning tafakkuri, xotirasi, idroki

va jamiyatdagi faoliyatini belgilab beradi. Shu sababli bola nutqining shakllanishi

nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy, psixologik hamda madaniy jarayonlarning ham muhim ko‘rsatkichidir. Tilshunoslikda “bolalar tili” tushunchasi bolaning go‘daklik davridan boshlab, maktab yoshiga yetguniga qadar shakllanadigan nutqiy faoliyatini, lug‘at boyligini, grammatik tizimni o‘zlashtirish jarayonini va kommunikativ imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. Bola nutqining shakllanishi tabiiy va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta‘siri natijasida yuz beradi. Tabiiy omillarga nutq apparati, eshitish va nerv tizimining rivojlanishi kirsra, ijtimoiy omillarga oilaviy muhit, tarbiya, ta‘lim sifati, madaniy muhit kiradi. Tabiiy omillari yetuk bo‘lgan bola, dastlabki nutqiy tarbiyani atrof-muhitga nisbatan seza boshlaydi. Ya‘ni bola fikrlay boshlagan davrdanoq, atrof-muhitga nisbatan taqlid yuzaga keladi.

Bolalar tili rivojlanish bosqichlari olimlar tomonidan quyidagicha tahlil etiladi. Uning shakllanishi bir necha bosqichda amalga oshadi:

1. Go‘daklik davri – bola atrof-dagilarga turli tovushlar orqali murojaat qiladi, yig‘i, ovoz chiqarish, tovushlarni takrorlash orqali nutqqa tayyorgarlik ko‘radi.

Bola dunyoga kelgan paytda ilk tovushlari shakllanadi. (A-a, n-ga, i)

2. Bir so‘zli nutq davri – taxminan bir yoshdan boshlab bola eng sodda so‘zlarni talaffuz qila boshlaydi. Bu davrda bola ko‘pincha “ona”, “da da”, “ber” kabi so‘zlardan foydalanadi. Bunda kichik bo‘g‘inli so‘zlarni ilg‘ay boshlaydi. Talaffuzda kichik va katta to‘xtamlar orqali yuzaga keladi.

Masalan: Da-da, o-na, bo-bo.

3. Ikki-uch so‘zli gaplar davri – bola asta-sekin sodda gaplar tuza boshlaydi, muloqotga kirishish imkoniyati kengayadi. Asosan, bu davrda “r” tovushini aytishda qiyinchliklar paydo bo‘ladi, “y”, “l” tarzida ifoda etishadi.

Masalan: Rustam – Yustam, taroq – tayoq.

4. Grammatik tizimni o‘zlashtirish davri – bola murakkabroq gaplar tuza boshlaydi, so‘z o‘zgartirish, qo‘shimchalar, kelishiklar, zamon shakllaridan foydalana boshlaydi. Bu davrda zamonlar aralashuvi, ko‘pincha kelasi zamon qo‘shimchalaridan ko‘p foydalanish, hamda bog‘lamalarni to‘liq talaffuz eta olmaslik, fikrlarini buyruq maylida yetkazish kabi holatlar uchraydi. Bu albatta ijtimoiy muhit ta‘sirida yuzaga keladigan omillar hisoblanadi.

Masalan: Men boraman – Men bola. O‘zim chiqaman – O‘zim chiqa. Menga olib ber – Menga obe(y).



5. Maktab yoshiga yaqinlashish davri – bolaning nutqi to'laqonli shakllanadi, u turli kommunikativ vaziyatlarga moslashishni o'rganadi. Odatda bu davrda bolalar ravon gapira boshlaydi, fikrlarini erkin bayon qila oladigan bo'lishadi.

Shu bilan bir qatorda kichik yoshli bolalar ba'zi uchratgan predmetlarni o'z talqinicha, tovushiga taqlidan nomlaydi.

Masalan:

kitob – kipot, tikop;

non – nanna;

suv – buvva;

osh – ashsha;

mashina – didit;

pechenye – pichiko;

banan – mana;

qo'g'irchoq, yangi kiyim – lolo;

oyoq kiyim – bati;

koptok – do'p-to'p;

futbol – teppi;

urmoq – at qilmoq.

Bola nutqi shakllanish jarayonida, unga kattalar ravon, erka bo'lmagan ohangda gapirsa, uning nutqi shu tarzda bo'ladi. Ba'zan kattalar erkalab, tovushlarni buzib tala ffuz qilishadi, bu esa, keyinchalik farzandining nutqida salbiy ta'sirlarni namoyon qiladi. Uni ham shaxs sifatida ko'rib, to'liq talaffuz me'yorlari asosida gapirilsa, bola nutqi ham shu tarzda shakllanib boradi. Bola nutqining rivojlanishi faqatgina vaziyat va muloqot asosida yuzaga chiqmaydi. Bola ruhiyati uning nutqiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tinimsiz janjallar orasida o'sgan bola qo'rqqoq, duduqlanib gapiradigan, qattiq stressga tushgan bola esa umuman gapirolmay qolgan holatlar ham kuzatilgan. Jahon tajribasida bola ko'z o'ngida barcha salbiy odatlarni cheklash zarurligi haqida so'z boradi. Bundan tashqari bola nutqi rivojlanishida, ijtimoiy muhit ham katta ahamiyat kasb etadi. Ota-ona tinimsiz kitob mutolaasi, madaniyatli nutq malakalaridan muntazam foydalansa, farzand nutqi tez va mukammalroq shakllanadi.

Tez-tez ko'chib yuruvchi, yoki ikki tilli oilalar farzandi bir nechta tildagi so'zlarni aralsh qo'llaydigan holda ulg'ayadi. Bu esa, keyinchalik bir muncha qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, nutq alohida tarbiya jarayoniga muhtoj, go'daklikdan u to'g'ri shakllantirilsa, qolgan qismini bola ta'limda, qolaversa, hayoti davomida o'zlashtirib boraveradi. Muhimi, tayanch nuqta to'g'i tanlansa bo'lgani.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Usmanova, N. Bekmuxamedova, G. Iskandarova. Sotsiolingvistika. Toshkent. "Universitet". 2014.
2. S.Karimov. Nutq madaniyati va mutolaa san'ati. O'quv qo'llanma. Samarqand. 2020.
3. X.Ibraimov, M.Quronov. Umumiy pedagogika. Sahnof. 2023.

